



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-oktabr

530-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xokkey sport turini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–334-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 2-oktabrdagi 452-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xokkey sport turini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–334-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 2-oktabrdagi 452-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xokkey sport turini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–334-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 2-oktabrdagi 452-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar xokkey sport turini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

xokkey sport turi bo‘yicha terma jamoalar va sport klublari uchun sport zaxirasini yaratish, iqtidorli sportchilarni saralash (seleksiya)ning raqamlashtirilgan tizimini joriy qilish;

xokkey sport turi bo‘yicha malakali trenerlar, hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish;

chet ellik mutaxassislar, trener va sportchilarni jalb etish hamda ular bilan o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish;

xokkey sport turi bo‘yicha infratuzilmani yanada yaxshilash hamda xalqaro talablarga muvofiqlashtirish;

2025-2027 yillarda Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasi hududida Xokkey sport majmuasini (keyingi o‘rinlarda - Majmua) barpo etish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Sport vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qumitasi va O‘zbekiston xokkey federatsiyasining:

Majmuani innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda qimmat bo'lmagan va energiya tejovchi materiallardan zamonaviy muz saroyi bilan birgalikda barpo etish va foydalanishga topshirish;

Majmua qurib bitkazilgandan so'ng unga O'zbekiston xokkey federatsiyasini tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish va Majmuani saqlash xarajatlarini O'zbekiston xokkey federatsiyasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi; belgilanishicha;

Majmua 2025-2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida barpo etilishi;

Majmua xokkey sport turi bo'yicha terma jamoalar uchun o'quv- mashg'ulot jarayonini va sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha O'zbekiston xokkey federatsiyasining asosiy bazasi hisoblanishi;

sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablariga o'quvchilarning hujjatlarini qabul qilish hamda ularning o'qishini ko'chirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 2024/2025 o'quv yilidan boshlab tegishli moliya yili uchun ajratilgan mablag'lap doirasida yil davomida amalga oshirilishi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

O'zbekiston xokkey federatsiyasi, xokkey sport turi bo'yicha sport klublari va nodavlat sport ta'lim tashkilotlari uchun foyda colig'i uch yil muddatga 50 foizga kamaytirilishi;

O'zbekiston xokkey federatsiyasi, xokkey sport turi bo'yicha sport klublari va nodavlat sport ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish uchun yuridik shaxslar tomonidan yo'naltiriladigan homiylik xayriyalari summasi foyda solig'ni hisoblashda soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanishi;

belgilab qo'yilishicha;

O'zbekiston xokkey federatsiyasi, xokkey sport turi bo'yicha sport klublari va nodavlat sport ta'lim tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga xokkey sport turi bo'yicha jalb etiladigan chet ellik trener, sportchi va boshqa mutaxassislar uchun O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma tegishli to'lovlarni undirmagan holda berilishi (uzaytirilishi);

2024-2029-yillarda O'zbekiston xokkey federatsiyasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xokkey bo'yicha bolalar va o'smirlar sportini yanada rivojlantirish, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda ilg'op ilmiy tajribalarni joriy etish hamda milliy terma jamoalar sportchilarini samarali tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida har yil Davlat budjetidan 2 milliard so'm mablag' O'zbekiston xokkey federatsiyasiga ajratilishi;

xokkey sport turi bo'yicha chet ellik sportchilar, trenerlar va boshqa mutaxassislarni yashash uchun mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalariga joylashtirishda O'zbekiston xokkey federatsiyasi, xokkey sport turi bo'yicha sport klublari va nodavlat sport ta'lim tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha turistik yig'im undirilmasligi;

2028-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston xokkey federatsiyasi, uning hududiy bo'linmalari, shuningdeq xokkey sport turi bo'yicha sport klublari va nodavlat sport ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan hamda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan sport asbob-uskunolari, inventarlari, translyatsiya qilish bilan bog'liq barcha asbob-uskunalar va texnikalar, farmakologiya

mahsulotlari, sport oзуqalari, maxsus professional sport kiyimlari, maxsus texnika va transport vositalari, shuningdeq xokkey sport turida foydalaniladigan boshqa barcha mahsulotlarni uchun bojxona boji to'lovlaridan (bundan bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imler mustasno) ozod qilinishi;

mazkur bandidagi imtiyoz va shartlar Sport vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar, O'zbekiston Milliy olimpiya qumitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga ham tatbiq etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Sport maktabi (M.Abduqodirov) manfaatdor tashkilot, idora va muassasalar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-334-son qarori talablari doirasida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**